

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS GA OID TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

Sirdaryo VPXQTMOHM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini o‘rganish bo‘yicha PIRLS xalqaro tadqiqot topshiriqlari maqsadi va mazmuni haqidagi umumiy ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘qish savodxonligi, tahliliy fikrlash, PIRLS, IEA

Аннотация. В этой статье был проанализирован общий обзор цели и содержания оценивания по изучению грамотности чтения у детей начальных классов в рамках международного исследования PIRLS-Прогресс в международном исследовании грамотности чтения.

Ключевые слова: Грамотность чтения, критическое мышление, PIRLS, IEA

Abstract. In this article, the general overview about the aim and the content of the assessment for studying reading literacy of the primary class children in the scope of the PIRLS- Progress in International Reading Literacy Study has been analyzed.

Key words: Reading literacy, critical thinking, PIRLS, IEA

Ayni vaqtda dunyoda globallashtirish jarayoni avj olgan ekan uning tub zamirida texnika va texnologiyalar yotadi. Borliqdagi bu jarayoni fan va texnikaning rivojlanishida, iqtisodiyotning yuqori darajada o‘rnatilishida va ta‘lim sohasining tubdan yuksalib borishida ko‘rinmoqda. Ta‘lim sifatini o‘rnatishning muhim omili mamlakatda raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. Kelajak avlodning faolligini shakllantirish nafaqat bir mamlakat uchun balki, xalqaro hamjamiyatimiz uchun ham e‘tiborli masala hisoblanadi.

Ta‘lim sifatini yanada chuqurlashtirish, rivojlantirish va baholash kabi masalalar bilan bir qancha xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta‘lim sohasini baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS kabi baholash darsturlari amaliyotga tatbiq etilgan. Bugungi kunda ushbu xalqaro tadqiqotlarning bir qanchasida ishtirok etdik. Biz esa siz bilan o‘qish savodxonligi va matinni tushunish darajasini aniqlovchi PIRLS xalqaro tadqiqoti bilan tanishib chiqamiz.

O‘qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. Ma‘lumki, o‘qish savodxonligi insonlarning o‘qishdan ko‘zlagan maqsadlari bilan bevosita bog‘liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo‘lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o‘rganish va jamiyatda

ishtirok etish kabilar kiradi. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydilar.

Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Endi shu tadqiqotlarga tayyorlash jarayonida foydalangan bitta mavzu yuzsidan to'xtalib o'tsak.

Arazchi svetofor

Nasiba Erxonova

Katta bir shahardagi chorrahada uchta svetofor piyodalar va mashinalarning harakatini tartibga solib turarkan. Ular juda ko'p yillar ko'zlarini ochaverib-yumaverib, charchab ketishibdi. Aksiga olib, chorrahadagi mashinalar kimo'zarga tez yurib, hatto svetofor ustunlarini urib ketaveribdi. Jahli chiqqan piyodalar esa svetoforning buyruqlarini pisand qilmay, qizil chiroqda ham o'tib ketaveribdilar. Bir kuni uch og'ayni o'zaro gaplashib, bunday nohaqliklardan charchab ketganlarini aytib, dam olishga qaror qilibdilar.

Ertalab odamlar ishga borayotganda svetoforning ko'zlari o'chib-yonishini kutibdilar, mashinalar bir to'xtab o'ta boshlabdi. Lekin svetoforning chiroqlari almashib yonmabdi. Shunda chorrahada tartibsizlik boshlanibdi. Mashinalar va odamlar bir- birlarini kutmay, bir- birlariga yo'l bermay harakatlanishibdi. Natijada tirbandlik paydo bo'libdi. Hattoki jahli tez haydovchilar sekinroq yurayotgan mashinalarga borib urilibdi. Atrofiga qaramasdan o'tayotgan piyodalarni esa turtib ketishibdi. Shunda odamlar bunday noqulaylikdan qutulish yo'llarini izlabdilar. Falokatlarning oldini olish uchun muhandislarni yordamga chaqiribdilar. Texnik ustalar bor mahoratini ishga solib, svetoforlarni sozlabdilar.

Yo'lda piyoda va mashinalar yana tartib bilan, bir- birlariga yo'l bergan holda harakatlana boshlabdi. Shunda hamma svetoforlarga rahmat aytibdi. Ularning yo'lning bir chekkasida, indamasdan odamlarga uzzukun yordami tegayotganini barcha his qilibdi.

Mavzuni mustahkamlash ucun test savollari va topshiriqlar.

1. "Arazchi svetofor" matni muallifi kim?

- A. Kavsar Turdiyeva
- B. Nasiba Erxonova
- C. Shukur Sa'dulla
- D. Zaxro Hasanova

2. Piyoda va mashinalarning harakatini tartibga soluvchi qurilma qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Yo'l chiziqlari

- B. Militsoner
- C. Yo‘l belgilari
- D. Svetafor

3. Ular juda ko‘p yillar ko‘zlarini ochaverib-yumaverib, charchab ketishibdi.

Ushbu fikrlar nimaga qaratilib aytilgan?

- A. Mashina chiroqlarida
- B. Yo‘l belgilariga
- C. Svetafora
- D. Yo‘l chiziqlariga

4. *“Jahli chiqqan piyodalar esa svetaforning buyruqlarini pisand qilmay, qizil chiroqda ham o‘tib ketaveradilar.”* Ushbu gapda piyodalarning qizil chiroqda o‘tib ketishiga sabab bo‘lgan barcha to‘g‘ri javoblarni belgilang.

- A. Shoshib turgan bo‘lishi mumkin
- B. Yo‘l belgilarini bilmasligi sabab bo‘lishi mumkin
- C. Atayin o‘tib ketishi mumkin
- D. Svetafora qaramasligi mumkin

5. Bir kuni uch og‘ayni o‘zaro gaplashib qanday qarorga kelishdi?

- A. Dam olishga qaror qilibdi
- B. Chiroqlarini yumib olishga qaror qilibdi
- C. Yashil chiroqni umuman yoqmaslikka qaror qilibdi
- D. Qizil chiroqni yoqmaslikka qaror qilibdi

6. Ertalab odamlar ishga borayotganida svetafordan qanday holatni kutishibdi.

Mashinalar qanday harakatlana boshlabdi?



7. Svetafor chiroqlari yonmasligi oqibatida chorrahada nima– nimalar sodir bo‘lishi mumkin? Bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha omillarni keltiring.



8. Falokatni oldini olish uchun yordamga kimlarni chaqirdi?

- A. Duradgorlarni
- B. Texnik xodimlarni
- C. Yo‘lchilarni
- D. Muhandislarni

9. Texnik ustalar vazifalari nimalardan iborat edi? Javobingizni yozing.



10. Piyodalar va mashinalar tartib bilan yurishi uchun nimalar bo‘lishi kerak ekan? Bo‘lishi kerak bo‘lgan hamma jihatlarni ko‘rsatib o‘ting.



11. Haydovchi va piyodalarning chorradagi harakatlarini qanday baholaysiz?



12. Siz nima deb o‘ylaysiz, svetofor arazlab to‘g‘ri Ish qildimi?



13. **Topshiriq.** Muhandislar, haydovchi, piyoda, mashinalar so‘zlarida nechta harf, unli, undosh tovushlar va bo‘g‘in borligini aniqlab, jadvalga yozing.

Topshiriq	Svetofor	Muhandislar	Haydovchi	Piyoda	Mashinalar
Harf					
Unli					
Undosh tovushlar					
Bo‘g‘in					

14. **Topshiriq.** Matndagi ushbu qatnashgan so‘zlarni ma‘nodoshlarini topib jadvalni to‘ldiring.

So‘zlar	og‘ayni	chorraha	pisand	uzzukun
Ma‘nodoshi				

15. **Topshiriq.** Hikoyadagi ushbu so‘roqlarga javob bergan so‘zlarni topib jadvalni to‘ldiring.

Kim? Nima?	Qanday?, qanaqa?	Nima qilmoq? Nima bo‘lmoq?
Piyoda	Ko‘p	his qilmoq

--	--	--

16. Quyida berilgan soʻzlar ichidan gaplarning chegarasini aniqlab koʻchiring. Gapning oxiriga nuqta va kerakli joyga vergul belgisini qoʻying.

Mashinalarvaodamlarbirbirlarinikutmaybirbirlarigayoʻlbermayharakatlanishib di.

17. Topishmoqni javobini toping.

Ustma-ust uchta chiroq

Koʻzlariga sergak boq.

Harakatni kuzatar

Xatolarin tuzatar

18. Harflarni oʻz oʻrniga qoʻyib, matnda kelgan soʻlardan birini toping.

U M A N H I S D _____

R V T S O F E O _____

Ushbu tartibdagi savollarni berishimiz oʻquvchilarni mavzuni yanada qunt bilan oʻqib tushunishga, fikrlar qobiliyatini rivojlanishiga ularni bilimli va nutqini ravon boʻlishiga olib keladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki sh savodxonligi darslarida ham badiiy matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday darslarni tashkil etishda oʻqituvchilar maxsus tayyorgarlik koʻrishlari, har bir matnning oʻziga xos jihatlarni oʻrganishlari lozim. Bu kabi innovatsion darslarda PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos test va topshiriqlarni tuzish hamda ulardan unumli foydalanish mumkin deb oʻylayman

Foydalangan adabiyotlar

1. U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. Xalqaro tadqiqotlarda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish savodxonligini baholash.
2. Yusupov M. "Oʻqish va yozuv darslari samaradorligini oshirish". – Toshkent 1994.
3. Aydarova. U.B. Oʻqish savodxonligi. (II qism) 3-sinf. Novda. – Toshkent-2023.
4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish savodxonligini baholholash (Boshlangʻich sinf oʻqituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qoʻllanma). Taʼlim inspeksiyasi huzuridagi Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019.
5. www.ziyonet.uz.
6. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti veb sayti